CHO’LPON SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Baxshullayeva Kumush Ulug’bek qizi
Vobkent tumani, 20-maktab ona tili va adabiyot o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadid adabiyoti vakili bo’lmish Cho’lpon she’rlarining ayrim lingvopoetik xususiyatlari berilgan. Shoir she’rlarida qo’llanilgan ramzlar va anaforalar tahlil ostiga olingan. Shuningdek, she’riy matnlardagi so’z tanlovi, obraz va ramzlar lingvopoetik jihatdan o’rganildi. Cho’lpon she’riyatining o’ziga xos til xususiyatlari ochib berildi.

KALIT SO’ZLAR: Cho’lpon, lingvoportik tahlil, badiiy matn, ramzlar, obraz, anafora.

ABSTRACT

This article examines certain linguopoetic features of the poetry of Cho‘lpon, a representative of Jadid literature. The symbols and anaphora employed in the poet’s works are analyzed. In addition, word choice, imagery, and symbols in poetic texts are explored from a linguopoetic perspective. The distinctive linguistic features of Cho‘lpon’s poetry are also revealed.

KEYWORDS: Cho‘lpon, linguopoetic analysis, literary text, symbols, imagery, anaphora

KIRISH

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik funksiyasini namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani “lingvistik poetika” – “lingvo- poetika” deb nomlash filologiya ilmida ancha turg'unlashgan hamda “lingvistik poetika” ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o'rnini aniqlashtirishga bag'ishlangan ko’plab tadqiqotlar yaratilgan. Ana shu ma'noda badiiy asar tilini “stilistik aspekt”da o’rganishni “badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish” tariqasida nomlash va talqin etish maqsadga muvofiqdir. Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta'minlaydi. Badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo’lar ekan, biror asarni yuksak darajada ko’tara olishda uni ishlatayotgan odamni qay muloqotdan foydalanayotgani va qaysi ifoda maqsadlarni ishlatayotgani eng muhim xususiyati hisoblanadi, biror ijodkorni tilini o’rganar ekanmiz dastavval eng e’tibor berishimiz kerak bo’ladigan narsa uning tilimiz rivojiga o’z asarlari bilan qanday ta’sir o’tkazayotgani bo’ladi

XX asr o‘zbek adabiyotining eng yirik siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Cho‘lponni xalqimiz erki, ozodligi yo‘lida iymon, etiqod timsoliga aylanganligidir. U “go‘zal Turkiston”ni mustaqil, erkin holda ko‘rishni shu qadar orzu qildiki, Bolshevik mafkurachilari uning og‘zini berkitib nafasini chiqazmay turganda ham, u “kishan kiyma, bo‘yin egma, ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen!” deya millatdoshlarini kurashga chaqira oladi. (Abdulhamid Cho‘lpon. Go‘zal Turkiston, she’rlar. Toshkent “Ma’naviyat” 1997.)

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Cho‘lpon o‘z she’rlarida, zamonaviy va xalqchil g‘oyalarni olg‘a surar ekan tom ma’nodagi rostgo‘y shoir sifatida doimo haq so‘zni aytadi, haqiqatni yozadi. Cho‘lpon she’riyatining mavzu doirasi juda keng. Shoir o‘z asarlarida yangi davr muammolari, vatan qismati, inson qadr-qimmati, xalq qudrati, erk, ma’naviyat hamda ma’rifat taraqqiyoti kabi zamonaviy masalalarni aks ettiradi. Shu bois shoir ijodida zamovaviy ruh bo‘rtib turadi. Uning aksariyat she’rlarida vatan, xalq unga bo’lgan muhabbat aks etadi. O’sha davr

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

mafkurasiga qarshi chiqib Vatanini ulug’lash, xalqini ma’rifatga yetaklash jasorat edi. Buni Cho’lpon o’ziga xos tarzda yoritdi. Ramzlar, qiyoslashlar, o’xshatishlar kabi unsurlar bilan badiiy asariga o’zgacha tus berdi. Ochiq-oydin sovet hukumati siyosatiga qarshi chiqish mushkulligini bilgan holda yangicha timsollar orqali ularni ifodalab berdi va davr siyosatini qoraladi. Xususan, uning Vatan mavzusidagi she’rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, bunga guvoh bo’lamiz. Masalan, **“Go’zal Turkiston”** she’rida vatanining mustaqil bo’lishi kelgan vaqtni “sahar”, vatanini “chaman”, bog’cha”, uning ozodligi uchun harakat qilishi kerak bo’lgan xalqni “qushlar” deya ifodalaydi:

Go’zal Turkiston senga ne bo’ldi?
Sahar vaqtida gullaring so’ldi.
Chamanlar barbod, **qushlar** ham faryod,
Hammasi mahzun. Bo’lmasmi dil shod?
Bilmam ne uchun **qushlar** uchmas **bog’chalaringda**?

Yoki shoirning “Bizning Vatan” she’rida endi ma’rifat nima ekanligini, yangilikklarga tayyor bo’lgan jamiyatni “daryo”, buni anglashi uchun erkini qurbon qilganini ya’ni mustamlakachilik davrini “kishan” deya aytadi. Bilamizki, “kishan” so’zi ko’chma ma’noda **“Izohli lug’at”**da “Umuman erkin harakatga yo’l qo’ymaydigan narsa, to’siq, g’ov” deb izohlanadi. Cho’lponning ushbu misralarida ham shunga ishora bor:

Daryosi avvalgidek, yerdan olib qochmas o’zin,
Chunki poyiga uning mahkam urilmishdir **kishan.**

“Go’zal Farg’ona” she’rida ham mustamlaka siyosatini **“qora parda”** deb keltiradi. “Izohli lug’at”da qora – salbiy belgiga egalikni, yomolikni, parda esa berkitib, to’sib turadigan narsa deyiladi:

Keng cho’ziq yaylovlaring yovlarga ochmish ko’ksini,
Bir **qora parda** bosibdur tuprog’ingning ustini.

Ushbu she’rda yurtning kun kelib mustaqil bo’lishini “bahor” deb aytadi. Bahor xalqimizda ezgulik, erkinlik, go’zallik ramzidir:

Yig’lama, yurtim, agarchi bul kuningda yo’q **bahor**,
Kelgusi kunlaringda baxtning yulduzi o’ynab qolar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Cho’lpon ijodida ramzlar keng qo’llanilgan. Ularning aksariyati mustaqillikni, xalqni erkinligini qo’lidan olgan hukumatni bildiradi. Buni Vatanini sevgan shoir ijodida yanada o’zgacha tus bergan.

Cho’lpon she’rlarida anaforadan ham keng foydalangan. Bu she’rning ta’sir kuchini oshirgan va g’oyasini yanada aniqroq ta’kidlagan. Anafora deb nomlanuvchi ushbu usul misra, matn boshidagi so’zning parallel holda takroridan iborat bo’lib, nutq figurasi deb ham yuritiladi. Anafora ba‟zi manbalarda boshlang’ich so’z takrori deb ham yuritiladi. Boshlang’ich so’z takrori so’zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko’rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmni mustahkamlaydi.

Anaforalar turli ilmiy manbalarda bir-birini inkor etmaydigan muayyan fikrlar bilan ta‟riflanadi: A.Hojiyev anaforani quyidagicha ta’riflagan: “Anafora (yun. anaphora – yuqoriga chiqarish). **Anafora** – she’riy misralarning boshida yoki nasriy asardagi gaplarning oldida bir xil jaranglagan tovush, ohangdosh so’z va iboralarning takrorlanib kelishi Shoir she’riyatida anaforani hosil qiluvchi birliklar – **tovush, so’z va so’z birikmasi** bo’lib, bunday takrorlar ma’lum bir bandda, umuman, she’rda yuzaga kelgan. She’rlarida qatorma-qator kelgan misralarning boshida takror kelgani juda ko’p qo’llanilgan. **G.Rixsiyeva** “Anafora misrada qayd etilgan fikrning eng keskin, ta’kidlangan nuqtasini ifoda etar ekan, u albatta, mantiqiy urg’u bilan bog’liq bo’ladi. Mantiqiy urg’u gapning yangiligi (yoki yangilik o’rami)da aks etadi deya aytib o’tadi.

Anafora Cho’lpon she’riyatida turli xil maqsadlar bilan qo’llanilgan. Masalan, uning “Buzilgan o’lka” she’rida so’roq olmoshlari misra boshida takrorlanib, xalq, vatanining ahvolidan qayg’urayotgan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

shoirning alamli so’rovlari aks etgan. She’rda anafora orqali hosil qilingan bu so’roq gaplar ta’kidni yanada kuchaytirgan va xalqni ozodlikka erishishga da’vat qilgan.

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?
Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga?
Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qullarga?
Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?
Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?
Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?
Nega buncha umidsizdir turishing?
Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?
Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?
Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydir og'u-o'q?
Nima uchun borlig'ingda bu daraja buzg'unlik?
Nima uchun o'ch buluti sellarini yog'dirmas?
Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?

“To’fon” she’rida esa shoir **“bilamizkim”** bosh gap qismi takrorlanib, sovet davri mafkurasini qanday johil ekanligiga ishora qilgan. Shoir bu she’rini Onado’li qishlog’ining muzaffar o’rdalariga bag’ishlaganini aytadi. Shuning uchun bu she’rda anafora ularni erkinlik uchun kurashga undash maqsadida qo’llangan.

Bilamizkim, unlar sizni yashamoqqa qo'ymaylar,
Bilamizkim, qoningizni tomchi-tomchi ichalar,
Bilamizkim, unlar sira yuvosh xalqni sevmaylar,
Bilamizkim, tuproq uchun insonliqdan kechalar.

“Ket” she’rida anafora usuli she’rning to’liq qismida uchraydi. Buni she’rning nomida ham bilib olsa bo’ladi. Ammo oxirgi misralaridagina qatorma-qator qo’llangan. Anaforani hosil qilgan so’z II shaxs buyruq maylida ekanligi uning ta’sirchanligini yanada kuchaytirgan:

Sening qo'pol..., qiynaguvchi qilig'ing,
Ket, mangulik yo'qqa ko'chsin borlig'ing.
Ket, malaklar dostonini o'qima,
Ket, aslsiz ertaklarni to'qima.
Ket, sevgili ko'kragimga tinchlik ber,
Ket, sening-chun quchoq ochgan qora yer.
Ket, jonimni qiynaguvchi jodu-hur,
Ket, ko'nglimni aldaguvchi yolg'on nur!

“Ko’klam qo’shig’i” she’rida shoir anaforadan mahorat bilan foydalangan. Anaforani hosil qilgan so’z kesim vazifasida kelgan kishilik olmoshi bo’lib, uning ma’nosini faqat kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi o’rnida qo’llangan yolg’iz so’zi kuchaytirgan:

Ko'zlarimda har qayg'idan bir yig'i,
Yuzlarimda aldanishning belgisi...
Yolg'iz menmi ko‘klam chog'i yig'lag'an?
Yolg'iz menmi har umidda aldang'an?
Yolg'iz menmi ko'kragini tig'lag'an?
Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmag'an?
Ey ko‘klamning ko'z tortg‘uchi kelini,
Nima uchun yig'latasen bir meni?..

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Umumiy holda shuni ayta olamizki, shoir ijodida anafora shoirning ichki kechinmalarini kuchliroq ifodalashiga sabab bo’lgan. She’rlarini o’quvchi xalqqa aniq, ta’sirli singishi maqsadida qo’llangan bu anaforalar, boshqa shoirlarda uchramaydi. Shoir she’riyatidagi anaforalarning lingvopoetik xususiyati aynan shu kitoxonning qalbini jumbushga keltirish, Vatanini sevishga va uning tinchligini, erkinligini asrashga qaratilgan.

XULOSA

Cho’lpon jadid adabiyotida o’ziga xos oringa ega. Uning she’rlaridagi o’ziga xoslik boshqa shoirlarda uchramaydi. Vatanini, xalqini sevgan shoir shunday ohoriy ramzlarda, perifrazalardan foydalanadi, asarining badiiyligini oshira oladi. Xalqining ma’rifatli bo’lishini xohlagan millat shoiri bo’lmish Cho’lpon haqiqatan yulduz kabi porlay oldi.

Cho‘lpon ijodi — o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy tafakkurning, balki milliy uyg‘onishning ham yorqin ifodasidir. Uning she’rlarida til, obraz, ramz, metafora, perifraza, takror, anafora kabi lingvopoetik vositalar badiiy g‘oya bilan uyg‘un holda ishlaydi. Shoirning poetik dunyosi xalq ruhiga, erkinlik tuyg‘usiga, ma’naviy uyg‘onishga daxldor chuqur ma’nolar bilan sug‘orilgan.

Cho‘lpon she’rlari tilida takrorlarning faol bo‘lishi ham lingvopoetik xususiyatdir. Anafora va parallelizm she’rning musiqiy tuzilmasini tashkil qiladi, his-tuyg‘uni kuchaytiradi, ruhiy bosim va intilishlar tarangligini oshiradi. Umuman, Cho‘lpon she’riyatining lingvopoetik mohiyati shundaki, u tilni oddiy aloqa vositasi sifatida emas, balki ma’no tirikligini yaratadigan, ruhiyatni ifoda qiladigan, millatning ichki ovozini eshittiradigan badiiy qurol sifatida qo‘llaydi. Cho‘lponning tilga bo‘lgan munosabati ham lingvopoetikaning o‘ziga xos ko‘rinishidir. U xalq tilining tabiiy ohangini adabiy tilning nafis imkoniyatlari bilan birlashtiradi. She’rlardagi sokin ohang, samimiy so‘zlar, xalqona iboralar poetik mazmunni xalq ruhiga yaqinlashtiradi desak, xato qilmagan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A. Hojiev. "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" –Toshkent, 1985. –164 .
2. Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 179 b.
3. M. Yo’ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. –Toshkent: “Fan”, 2007. –123 b.
4. Cho'lpon. Ko'klam ruhi [Matn]: / she'rlar / Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 176 b.
5. Asalxon Xolmatova Qodirjon qizi: TILSHUNOSLIKDA LINGVOPOETIKA VA LINGVOPOETIKVOSITALARNING O‘RGANILISHI TARIXI
6. Abdishukur Musayevich Shofqorov: ANAFORA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI
7. Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi: ABDULHAMID CHO‘LPON SHE’RLARINING BADIIY TAHLILI
8. Tòxtayeva Zaynura Òktam qizi: CHO‘LPON SHE’RIYATIDAGI AYRIM PERIFRAZALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI
9. www.wikipedia.uz
10. www.kh-davron.uz
11. www.google.com

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.